Ushbu maqolada graflar nazariyasi yordamida Qashqadaryo viloyatidagi ayrim diqqatga sazovor joylarini sayohat qilishning optimal xaritasini keltirishga harakat qildik. Biz nafaqat tashqi sayyohlikni, balki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bilan boshlangan ichki turizmni rivojlantirish zarurligini sezdik, sababi Respublikamizning diqqatga sazovor joylari haqida xalqimizda yetarlicha ma'lumot mavjud emas. Bu esa joylardagi mutassaddi shaxslarning o'z ishiga sovuqqonlik bilan qarayotganini yoki vazifasini to'liq tushunmaganini bildiradi, bu masalalarga jiddiy e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

ADABIYOTLAR

1. М.Р. Павлова, Н.Г. Никулина Некоторые применения теории графов в туризме // труды томского государственного университета // актуальные вопросы географии и геологии Материалы Всероссийской молодёжной научной конференции 10-13 октября 2010 г. Том 277. С. 241-242 издательство томского университета 2010
2. Светуных С.Г., Заграновская А.В., Светуных И.С. Комплекснозначный анализ и моделирование неравномерности социально-экономического развития регионов Россия.-СПб.: <http://sergey.svetunkov.ru/economics/complex/MD2012>, 2012, 129 с.
3. Jo'rayev H., Azizov I., Otaqulov S. // Kombinatorika va graflar nazariyasi, Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent – "ILM ZIYO"2009, 256 b.

4. Хазова, Д.С. Моделирование развития устойчивого туризма в Республике Алтай с помощью качественных методов / Д.С. Хазова, И.Г. Шандра Прикладная математика: новые задачи и традиционные приложения. Сборник исследовательских и реферативных работ молодых ученых: Сборник статей. Выпуск 1. - М.: Академинновация, 2014. - С. 68-78. (0,61/0,4 пл.).
5. Джумаев Б.А., Рубцов В.А. Повышение эффективности Взаимосвязи туристской отрасли Узбекистан посредством системного анализа ее основных компонентов // Вестник Академии наук Республики Башкортостан 2022. Том 44 3 (107) с.65-74.
6. Левченко К.К. Оценка результативности развития внутреннего туризма региона // Теоретические и прикладные аспекты развития сферы рекреации и туризма. DOI: 10.18572/2686-858X-2023-17-1-20-29.
7. Нарзиев М. М. Сезонность спроса на туристические услуги и пути минимизации сезонного характера в туристической индустрии узбекистана . //Труды ученых ИГУ. 2009. 23. С. 61-66.
8. Муминов Ж. К. Перспективы развития туристической индустрии в Узбекистане //Синергия Наук. 2017. No. 8. С. 117-122.
9. Расулова Н. Н. Туризм в Узбекистане: оценка состояния и перспективы развития //А43 Актуальные вопросы развития территорий:теоретические и. 2016. С. 50.
10. Q.Ahmedova, Sh. Yusupova, B. Mirzoodilov Qashqadaryo viloyatida turizm o'sishi turg'unligini ta'minlashning matematik modeli // "QarDU xabarlar"ilmiy-nazariy, uslubiy jurnali, 2024 (2) 2, b. 62-68.
11. Yusupova Sh. B. Toshkent shahri turizmi rivojlanishining matematik modellar orqali tahlili // Journal of Theory, Mathematics and Physics, Vol 3. No. 04, 2024, <https://jtmp.innovascience.uz/index.php/journal/article/view/133> b.36-39.
12. Nasriddinov X. Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari: / Nasriddinov, Xujayarov - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. // ISBN 978-9943-08-629-6.
13. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000 yildan 2005 yilgacha Toshkentda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr etilgan.
14. Qashqadaryo viloyati (Wayback Machine saytida 21-iyul 2022-yil sanasida arxivlangan). 21-iyul 2022-yil.

РЕЗЮМЕ

Туризм является одной из наиболее быстро развивающихся отраслей мировой экономики. Знание законов развития международного туризма необходимо для того, чтобы он занял достойное место на мировом туристском рынке. В этой статье мы попытались с помощью теории графов предоставить оптимальную карту некоторых достопримечательностей Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Туризм, графы, оптимальная карта, модель туризма, математическое моделирование.

RESUME

Tourism is one of the most rapidly developing sectors of the world economy. Knowledge of the laws of international tourism development is necessary for it to take its rightful place in the world tourism market. In this article, we have tried to create an optimal map of traveling to some attractions in the Kashkadarya region using graph theory.

Key words: Tourism, graphs, optimal map, tourism model, mathematical modeling.

UDK 517.95

FURYE QATORLARINING ELLIPTIK QISMIY YIG'INDILAR KETMA-KETLIGI UCHUN UMUMLASHGAN LOKALIZATSIYA MASALASI

BUVAYEV Q. T.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI, TOSHKENT
buvayev@mail.ru

DAVIROVA G. N.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI, TOSHKENT
gulhayodaveroval@gmail.com

REZYUME

Ushbu ishda, yoyiluvchi funksiyaning tashuvchisi biror sohadan tashqarida bo'lsin degan shart asosida, aynan shu sohada ikki karrali Furye qatorlarining elliptik qisman yig'indilar ketma-ketligini deyarli yaqinlashish masalasi o'rganilgan. Bunday masalaga odatda umumlashgan lokalizatsiya masalasi deb ataladi.

Kalit so'zlar: Furye qatori, elliptik qisman yig'indi, umumlashgan lokalizatsiya, maksimal operator.

Quyidagi

$$\sum_{n \in Z^2} f_n e^{inx} \quad (1)$$

ikki karrali Furye qatorini qaraymiz. Bu yerda Z^2 - tekislikdagi butun koordinatali vektorlar to'plami, $f_n = (2\pi)^{-2} \int_{T^2} f(y) e^{-iny} dy$ - Furye koeffitsientlari, $T^2 = (-\pi, \pi]^2$, bunda $(-\pi, \pi]^2 = (-\pi, \pi] \times (-\pi, \pi]$ - dekart ko'paytma, $nx = n_1 x_1 + n_2 x_2$ -skalyar ko'paytma.

Ihtiyoriy $\lambda > 0$ son uchun $S_\lambda f(x)$ orqali (1) qatorning elliptik soha bo'yicha qisman yig'indisini belgilaymiz, ya'ni:

$$S_\lambda f(x) = \sum_{A(n) < \lambda} f_n e^{inx}, \quad (2)$$

bu yerda, $A(\xi) = a_{11}\xi_1^2 + 2a_{12}\xi_1\xi_2 + a_{22}\xi_2^2$ - ikkinchi tartibli bir jinsli ko'phad. Agar ihtiyoriy $\xi \neq 0$ vektor uchun ushbu $A(\xi) > 0$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $A(\xi)$ ko'phad elliptik ko'phad deyiladi (yoki ushbu $a_{12}^2 - a_{11}a_{22} > 0$ tengsizlik bajarilsa).

$L_2(T^2)$ - T^2 da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar sinfi bo'lsin. Bu sinfdagi normani quyidagicha kiritish mumkin: $\|f\|_{L_2(T^2)} = \left(\int_{T^2} |f(x)|^2 dx \right)^{\frac{1}{2}}$.

V.A. Il'in [1] ishida xos funksiyalar bo'yicha ihtiyoriy yoyilma uchun umumlashgan lokalizatsiya prinsipi tushunchasini kiritdi. Il'in tushunchasidan kelib chiqib, biz $L_2(T^2)$ da $S_\lambda f(x)$ uchun umumlashgan lokalizatsiya prinsipi o'rinli deb aytamiz, agar ihtiyoriy $f \in L_2(T^2)$ funksiya uchun ushbu

$$\lim_{\lambda \rightarrow \infty} S_\lambda f(x) = 0 \quad (3)$$

tenglik $T^2 \setminus \text{supp} f$ da deyarli bajarilsa.

Ko'rinib turibdiki, klassik lokalizatsiya prinsipidan farqli o'laroq bu yerda (3) tenglikni $T^2 \setminus \text{supp} f$ da deyarli bajarilishi yetarli (hamma joyda emas). Ushbu ishning asosiy natijasi quyidagi teorema hisoblanadi.

1-teorema. $\Omega \subset T^2$ biror ochiq soha, $A(\xi)$ ihtiyoriy ikkinchi tartibli bir jinsli elliptik ko'phad, $f(x) \in L_2(T^2)$ funksiya har bir argumentlari bo'yicha davriy va davri 2π ga teng bo'lsin. Agar ihtiyoriy $x \in \Omega$ da $f(x) = 0$ bo'lsa, u holda (3) tenglik Ω ning deyarli hamma yerida bajariladi.

Eslatib o'tamiz, n karrali Furye qatorlarining shar bo'yicha qisman yig'indisi uchun umumlashgan lokalizatsiya masalasini birinchi bo'lib R.R. Ashurov tomonidan [2] ishda o'rganilgan.


Deyarli yaqinlashish masalalarini o'rganishda quyidagi maksimal operatorini kiritish maqsadga muvofiq: $S_*f(x) = \sup_{\lambda>0} |S_\lambda f(x)|$. 1- teorema isboti maksimal operatorining quyidagi bahosiga asoslangan:

2-teorema. $K_R = \{x \in \mathbb{R}^2 : |x| < R\}$ - doira, $A(\xi)$ ixtiyoriy elliptik ko'phad, $f(x) \in L_2(T^2)$ funksiya har bir argumentlari bo'yicha davriy va davri 2π ga teng bo'lsin. Agar istalgan $x \in K_R$ da $f(x) = 0$ bo'lsa, u holda ixtiyoriy $r(r < R)$ uchun shunday $C = C(R, r)$ o'zgarmas son mavjudki, quyidagi

$$\int_{K_r} [S_*f(x)]^2 dx \leq C \int_{T^2} [f(x)]^2 dx \quad (4)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Biror $K_R \subset T^2$ doirada $f(x) = 0$ bo'lsin va ixtiyoriy $r < R$ sonini tayinlaymiz. $\chi_b(t)$, $t \geq 0$ $[0, b]$ segmentning xarakteristik funksiyasi bo'lsin. $\varphi_1(t)$ orqali quyidagi $\chi_{\frac{R-r}{3}}(t) \leq \varphi_1(t) \leq \chi_{\frac{2(R-r)}{3}}(t)$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi silliq funksiyaning belgilaylik. $\varphi_1(t)$ funksiya orqali ifodalangan $\varphi_2(t)$ funksiyaning ushbu $\varphi_2(t) = 1 - \varphi_1(t)$ ko'rinishida aniqlaylik (1-chizma, $a = \frac{R-r}{3}$).



Endi quyidagi yangi funksiyaning aniqlaymiz: $\psi(x) = \varphi_2(|x|)$, $x \in T^2$ va bu funksiyaning butun tekislikka davriy davom ettiramiz.

Quyidagi belgilashni kiritamiz: $\theta(x, \lambda) = (2\pi)^{-2} \sum_{A(n) < \lambda} e^{inx}$. U holda tushunarlik: $S_\lambda f(x) = \int_{T^2} \theta(x - y, \lambda) f(y) dy$.

Endi quyidagicha $\theta_\lambda(x) = \theta(x, \lambda)\psi(x)$ almashtirish kiritamiz.

1-xulosa. Ixtiyoriy $x \in K_r$ uchun quyidagi

$$S_\lambda f(x) = \int_{T^2} \theta_\lambda(x - y) f(y) dy \quad (5)$$

tenglik o'rinli.

Isbot.

$$\begin{aligned} S_\lambda f(x) &= \int_{T^2} \theta_\lambda(x - y) f(y) dy = \int_{T^2} \theta(x - y) \psi(x - y) f(y) dy = \int_{T^2} \theta(x - y) f(y) [1 - \varphi_1(|x - y|)] dy = \\ &= \int_{T^2} \theta(x - y) f(y) dy - \int_{T^2} \theta(x - y) f(y) \varphi_1(|x - y|) dy = S_\lambda f(x) - I, \end{aligned}$$

bu yerda $I = \int_{T^2} \theta(x - y) f(y) \varphi_1(|x - y|) dy$.

Shunday qilib, yuqoridagi tenglikka ko'ra $I = 0$ ekanligini ko'rsatsak xulosa isbot bo'ladi. Buning uchun ixtiyoriy $x \in K_r$ larda quyidagi

$$\text{supp} \varphi_1(|x - y|) \cap \text{supp} f(y) = \emptyset \quad (6)$$

munosabatni o'rinli ekanligini ko'rsatish yetarli.

Shartga ko'ra: $\text{supp} \varphi_1(|x - y|) = \{x - y \in T^2 : |x - y| < 2a, |x| < r\}$, bunda $a = \frac{R-r}{3}$ va $\text{supp} f(y) = \{y \in T^2 : |y| \geq R\}$.


2-chizmaga ko'ra, 1-xulosani to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun $R - 2a \geq r$ ekanligini ko'rsatish yetarli. Haqiqatan ham:

$$R - 2a = R - \frac{2(R-r)}{3} = \frac{R+2a}{3} \geq \frac{3r}{3} = r.$$

Shunday qilib 1-xulosa isbot bo'ldi. ♦

$0 < r < R$, $0 < 2a = \frac{2(R-r)}{3} < \frac{2R}{3} < R$ bo'lgani uchun markazi koordinata boshida va radiusi $2a$ ga teng bo'lgan doira, markazi koordinata boshida va radiusi R ga teng bo'lgan doiraning ichida yotadi.

Boshqa tomondan, (6) ni ko'rsatish uchun, markazi x bo'lgan nuqtani ushbu $\{y : |y| \leq 2a\}$ doiraning ixtiyoriy nuqtasidan olib, r radiusli doira chizilganda bu doira quyidagi $\{y : |y| \geq R\}$ to'plam bilan kesishmasligini ko'rsatish yetarli (2- chizma).



Quyidagi $a(n) = [A(n)]^{\frac{1}{2}}$ belgilashni kiritamiz. Bu belgilashga ko'ra $\theta(x, \lambda)$ ni quyidagi ko'rinishida yozib olamiz:

$$\theta(x, \lambda) = (2\pi)^{-2} \sum_{a(n) < \sqrt{\lambda}} e^{inx}. \quad (7)$$

$A(n)$ elliptik ko'phad bo'lgani uchun, shunday a_1 va a_2 musbat o'zgarmas sonlari mavjudki, ushbu

$$a_1|n| \leq a(n) \leq a_2|n|, \forall n \in \mathbb{Z}^2 \quad (8)$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini osongina ko'rish mumkin.

O'rama ta'rifidan foydalanib (5) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$S_\lambda f(x) = \int_{T^2} \theta_\lambda(x-y) f(y) dy = (\theta_\lambda * f)(x) = \theta_\lambda * f.$$

Oxirgi tenglikka ko'ra:

$$S_* f(x) = \sup_{\lambda > 0} |S_\lambda f(x)| = \sup_{\lambda > 0} |\theta_\lambda * f|. \quad (9)$$

$$U \text{ holda } (9) \text{ ga asosan quyidagi } \int_{T^2} [S_* f(x)]^2 dx = \int_{T^2} \left[\sup_{\lambda > 0} |\theta_\lambda * f| \right]^2 dx = \int_{T^2} \sup_{\lambda > 0} [\theta_\lambda * f]^2 dx$$

tenglikni yozish mumkin.

Shunday qilib, (4) ni isbot qilish uchun oxirgi tenglikka ko'ra, ushbu

$$\int_{T^2} \sup_{k > 0} [\theta_k * f]^2 dx \leq C \int_{T^2} [f(x)]^2 dx \quad (10)$$

tengsizlikni isbotlash yetarli, bu yerda supremum barcha natural sonlar bo'yicha olinadi. Shuni e'tiboringizga havola qilish lozimki, bu yerda jamlash (2) tenglikka ko'ra ushbu $\{n \in \mathbb{Z}^2 : A(n) < \lambda\}$ to'plam bo'yicha olib borilayotganligi sababli, (10) tenglikda supremumni faqat barcha natural sonlar bo'yicha olishni o'zi yetarli bo'ladi.

$$(\theta_k)_n \text{ orqali } \theta_k(x) \text{ funksiyaning Furre koefitsientlarini belgilaymiz, ya'ni: } (\theta_k)_n = (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \theta_k(x) e^{-inx} dx.$$

Bu Furre koefitsientlari uchun quyidagi xulosa o'rinli.

1-lemma. Shunday $\varepsilon > 0$ son mavjudki, ixtiyoriy $k > 0$ butun son va ixtiyoriy $n \in \mathbb{Z}^2$ uchun quyidagi

$$|(\theta_k)_n| \leq \sum_{\varepsilon|a(n) - \sqrt{k}| < |j|} |\psi_j| \quad (11)$$

tengsizlik o'rinli, bu yerda $\psi_j = (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \psi(y) e^{-ijy} dy$ - $\psi(x)$ funksiyaning Furre koefitsientlari.

Isbot.

$$\begin{aligned} (\theta_k)_n &= (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \theta_k(y) e^{-iny} dy = (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \theta(y, k) \psi(y) e^{-iny} dy = \\ &= (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \left((2\pi)^{-2} \sum_{a(j) < \sqrt{k}} e^{ijy} \right) \psi(y) e^{-iny} dy = (2\pi)^{-4} \sum_{a(j) < \sqrt{k}} \int_{T^2} \psi(y) e^{-iy(n-j)} dy = \end{aligned}$$

$$= (2\pi)^{-2} \sum_{a(j) < \sqrt{k}} \psi_{n-j} = (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) < \sqrt{k}} \psi_j.$$

Shunday qilib, oxirgi tenglikdan, ushbu

$$|(\theta_k)_n| \leq (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) < \sqrt{k}} |\psi_j| \quad (12)$$

tengsizlik kelib chiqadi.

Dastlab $a(n) > \sqrt{k}$ holni qaraylik. Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$M = \left\{ j \in Z^2 : a(n-j) < \sqrt{k} \right\}, \quad N = \left\{ j \in Z^2 : |j| > \varepsilon_1 \left(a(n) - \sqrt{k} \right) \right\}.$$

(12) tengsizlikka ko'ra (11) tengsizlikni isbotlash uchun quyidagi xulosani isbotlash yetarli:

2-xulosa. *Biror $\varepsilon_1 > 0$ son uchun, quyidagi*

$$M \subset N \quad (13)$$


munosabat o'rinli.

Isbot. O'z navbatida (13) munosabatning o'rinli ekanligini ko'rsatish uchun, quyidagi

$$d_n = \min_{a(n-j) = \sqrt{k}} |j| = \varepsilon_1 \left(a(n) - \sqrt{k} \right) \quad (14)$$

tenglikni o'rinli ekanligini ko'rsatish yetarli, o'z navbatida $A(\xi)$ elliptik ko'phad bo'lganligi sababli (14) tenglik koordinata boshidan markazi $n = (n_1, n_2)$ nuqtada bo'lgan $a(n-j) = \sqrt{k}$ ellipsigacha bo'lgan eng qisqa masofani topish masalasiga ekvivalentdir.

Faraz qilaylik $a(n-j) = \sqrt{k}$ tenglikni qanoatlantiruvchi (j_1, j_2) vektor $\omega = \frac{n}{|n|}$ vektoriga paralel bo'lsin. U holda tushinarliki, $\frac{n}{|n|} = \frac{n-j}{|n-j|}$ boladi (3-chizma).



Bundan tashqari, yuqoridagi mulohazalarga asosan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$a \left(\frac{n-j}{|n-j|} \right) = a(\omega), \quad (15)$$

bu yerda $a(n) = [A(n)]^{\frac{1}{2}}$, $A(n) = a_{11}n_1^2 + 2a_{12}n_1n_2 + a_{22}n_2^2$.

Endi $a(n-j) = \sqrt{k}$ ekanligidan, quyidagilar

$$|n-j| = \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)}, \quad (16)$$

$$d_k(n) = |j| = |n| - \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)} = \frac{1}{a(\omega)} \left(a(n) - \sqrt{k} \right) \quad (17)$$

kelib chiqishini ko'rsatamiz. Xaqiqatan ham:

$$\sqrt{k} = a(n-j) = a \left(\frac{n-j}{|n-j|} |n-j| \right) = |n-j| a \left(\frac{n-j}{|n-j|} \right) = |n-j| a(\omega) \Rightarrow |n-j| = \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)}.$$

$$d_k(n) = |j| = |n| - |n-j| = |n| - \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)} = \frac{1}{a(\omega)} \left(a \left(\frac{n}{|n|} \right) |n| - \sqrt{k} \right) = \frac{1}{a(\omega)} \left(a(n) - \sqrt{k} \right).$$

Endi $j = (j_1, j_2)$ uchun, ushbu

$$d_k(n) \geq a_2^{-1} (a(n) - \sqrt{k}) \quad (18)$$

tengsizlikni o'rinli ekanligini ko'rsatamiz, bu yerda $a_2 > 0$ son (8) tengsizlik orqali aniqlangan.

(8) ga ko'ra ixtiyoriy $n \in \mathbb{Z}^2$ uchun:

$$\begin{aligned} a_1|n| \leq a(n) \leq a_2|n| \Rightarrow a_1|n| \leq a\left(\frac{n}{|n|}|n|\right) \leq a_2|n| \Rightarrow a_1|n| \leq |n|a\left(\frac{n}{|n|}\right) \leq a_2|n| \Rightarrow \\ \Rightarrow^{(16)} a_1 \leq a(\omega) \leq a_2 \Rightarrow a(\omega) \geq a_2^{-1}, \end{aligned}$$

bu yerda (16) tengsizlik $|n| \neq 0$ ekanligini ta'minlab beradi.

Oxirgi va (17) tengsizliklardan (18) tengsizlik kelib chiqadi:

$$d_k(n) = \frac{1}{a(\omega)} (a(n) - \sqrt{k}) \geq a_2^{-1} (a(n) - \sqrt{k}).$$

Endi $(j_1, j_2) \parallel \omega\left(\frac{n}{|n|}\right)$ bo'lsa, u holda ushbu

$$d_k(n) = \min_{a(n-j)=k} |j| = a_2^{-1} (|n| - \sqrt{k}) \quad (19)$$

munosabat o'rinli bo'lishini ko'rsatamiz.

(16) tenglik va ushbu $|n - j| \geq |n| - |j|$ tengsizlikka ko'ra:

$$\begin{aligned} |n| - |j| \leq |n - j| = \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)} \Rightarrow |j| \geq |n| - \frac{\sqrt{k}}{a(\omega)} = \frac{1}{a(\omega)} (a(n) - \sqrt{k}) \geq a_2^{-1} (a(n) - \sqrt{k}) \Rightarrow \\ \Rightarrow d_k(n) = \min_{a(n-j)=k} |j| = a_2^{-1} (a(n) - \sqrt{k}). \end{aligned}$$

Shunday qilib, biz (19) tenglikni bajarilishini ko'rsatdik, o'z navbatida $(j_1, j_2) \parallel \omega\left(\frac{n}{|n|}\right)$ hol uchun (18) va (19) ko'ra (14) tengsizlikni o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

Endi j ixtiyoriy va k tayinlangan son bo'lsin. $d_k(n) = (d_k^1, d_k^2) \in \{a(n - j) = \sqrt{k}\}$ orqali j ga minimum beradigan ixtiyoriy nuqtani belgilaylik. Oshkormas funksiyani mavjudligi haqidagi teorema ko'ra $a(n) = \sqrt{k}$ ni qanoatlantiruvchi n lar uchun $a(n - j) = \sqrt{k}$ dan $j_2 = f_k(j_1) \Rightarrow d_k^2 = f_k(d_k^1)$ ni hosil qilamiz (bizning holimizda, $A(\xi)$ elliptik ko'phad bo'lgani uchun, ushbu $a(\xi) = \sqrt{k}$ tenglik bilan aniqlangan $\xi_2 = f_k(\xi_1)$ oshkormas funksiya yuqoridagi tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha (ξ_1, ξ_2) nuqtalarning yetarlicha kichik atrofida mavjud va yagonadir). Oxirgi tenglikni hisobga olib, koordinata boshidan ellipsigacha bo'lgan masofa uchun, quyidagini hosil qilamiz: $|d_k(n)| = \sqrt{(d_k^1)^2 + (d_k^2)^2} \leq \sqrt{|d_k^1|^2 + (f_k(d_k^1) + \delta)^2}$, bu yerda $\delta > a_2^{-1} (a(n) - \sqrt{k})$. Agar $|d_k^1| > l\delta$ bo'lsa, u holda $|d_k(n)| \geq |d_k^1| > l\delta$. Boshqa tomondan, agar $|d_k^1| \leq l\delta$ va l yetarlicha kichik bo'lsa, u holda bir o'zgaruvchili funksiyalar uchun Teylor formulasiga ko'ra:

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!} \Delta x + \frac{f''(x_0)}{2!} (\Delta x)^2 + \dots + \frac{f^{(m)}(x_0)}{m!} (\Delta x)^m + R_{m+1}(x), \quad (20)$$

bu yerda $R_{m+1}(x) = \frac{f^{(m+1)}(x_0 + \theta \Delta x)}{(m+1)!} (\Delta x)^{m+1}$ - Lagranj ko'rinishidagi qoldiq had, $0 < \theta < 1$, $m \geq 0$ butun son, $\Delta x = x - x_0$, $f(x)$ funksiya $x_0 \in \mathbb{R}^2$ nuqtaning biror atrofida aniqlangan va shu atrofda $m + 1$ marta differensiallanuvchi funksiya. (20) formula $m = 0$ da quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$f(x) = f(x_0) + f'(x_0 + \theta \Delta x) \Delta x. \quad (21)$$

Yoki $\Delta x = x - x_0$ ekanligini hisobga olib, (21) formulani $x_0 = 0$ uchun, ya'ni Makloren qatorini yozsak: $f(x) = f(0) + x f'(\theta x)$. Oxirgi tenglikni biz qarayotgan $j_2 = f_k(j_1)$ funksiya uchun qo'llasak, u holda quyidagini hosil qilamiz:

$$f_k(j_1) = f_k(0) + j_1 f'_k(\theta j_1). \quad (22)$$

$a(n) = \sqrt{k}$ ni qanoatlantiruvchi barcha n lar uchun $f_k(0) = 0$ bo'lgani uchun (22) formula ushbu ko'rinishida bo'ladi:

$$f_k(j_1) = j_1 f'_k(\theta j_1).$$

yoki

$$f_k(d_k^1) = d_k^1 f'_k(\theta d_k^1). \quad (23)$$

l yetarlicha kichik bo'lgani uchun (23) tenglikka ko'ra quyidagini xosil qilamiz:

$$|d_k(n)| = \sqrt{|d_k^1|^2 + (f_k(d_k^1) + \delta)^2} \geq |f_k(d_k^1)| + \delta = |d_k^1| |f'_k(\theta d_k^1)| + \delta.$$

d_k yetarlicha kichik va $f'_k(\theta d_k^1)$ chegaranlangan bo'lganligi uchun, oxirgi tenglikdan quyidagini olamiz: $|d_k(n)| \geq c\delta$, $c > 0$. Shunday qilib, 2-xulosa o'z navbatida $a(n) > \sqrt{k}$ hol uchun 1-lemma isbotlandi.

Endi $a(n) < \sqrt{k}$ bo'lsin. Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$M = \left\{ j \in Z^2 : a(n-j) < \sqrt{k} \right\}, \quad N_1 = \left\{ j \in Z^2 : |j| \leq \varepsilon_2 \left(\sqrt{k} - a(n) \right) \right\}.$$

Shunday $\varepsilon_2 > 0$ soni mavjudki, ushbu $M \supset N_1$ munosabatni o'rinli ekanligini yuqoridagiga o'xshash ko'rsatish mumkin.

$\psi(x)$ cheksiz marta differensiallanuvchi va davriy funksiya bo'lgani uchun, uni Furiye qatoriga yoyishimiz mumkin, ya'ni $\psi(x) = (2\pi)^{-2} \sum_{j \in Z^2} \psi_j e^{ijx} \Rightarrow \psi(0) = (2\pi)^{-2} \sum_{j \in Z^2} \psi_j$.

$\psi(0) = 0$ bo'lgani uchun:

$$\begin{aligned} (2\pi)^{-2} \sum_{j \in Z^2} \psi_j = 0 &\Rightarrow (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) < \sqrt{k}} \psi_j + (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) \geq \sqrt{k}} \psi_j = 0 \Rightarrow \\ &\Rightarrow (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) < \sqrt{k}} \psi_j = -(2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) \geq \sqrt{k}} \psi_j. \end{aligned}$$

Shunday qilib, bu holda oxirgi tenglikdan foydalanib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} (2\pi)^{-2} \left| \sum_{a(n-j) < \sqrt{k}} \psi_j \right| &= (2\pi)^{-2} \left| - \sum_{a(n-j) \geq \sqrt{k}} \psi_j \right| \leq (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j) \geq \sqrt{k}} |\psi_j| \leq \\ &\leq (2\pi)^{-2} \sum_{|j| \geq \varepsilon_2 (\sqrt{k} - a(n))} |\psi_j|. \end{aligned} \quad (24)$$

Agar ε sifatida ε_1 va ε_2 larni minimumini olsak, u holda $|(\theta_k)_n| \leq \sum_{\varepsilon | a(n) - \sqrt{k}| < |j|} |\psi_j|$ tengsizlikni hosil qilamiz.

Shunday qilib 1-lemma to'liq isbotlandi. ♦

2-lemma. *Ixtiyoriy $l \in N$ son uchun l , r va R larga bog'liq bo'lgan shunday C o'zgarmas son mavjudki, barcha $k \geq 0$ butun va $n \in Z^2$ lar uchun ushbu*

$$|(\theta_k)_n| \leq \frac{C}{\left(1 + \varepsilon \left| a(n) - \sqrt{k} \right| \right)^l}$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Isbot. Ixtiyoriy $h \geq 0$ son uchun $R - r$ ga bog'liq bo'lgan shunday c_h o'zgarmas son mavjudki, quyidagi

$$|\psi_j| \leq \frac{c_h}{(1 + |j|)^h} \quad (25)$$

tengsizlik o'rinli.

1-lemma va (25) tengizlikka ko'ra:

$$\begin{aligned} |(\theta_k)_n| &\leq \sum_{\varepsilon|a(n)-\sqrt{k}|<|j|} |\psi_j| \leq \sum_{\varepsilon|a(n)-\sqrt{k}|<|j|} \frac{c_h}{(1+|j|)^h} \leq \\ &\leq \sum_{\varepsilon|a(n)-\sqrt{k}|<|j|} \frac{c_h}{\left(1+\varepsilon\left|a(n)-\sqrt{k}\right|\right)^h} \leq \frac{c_l}{\left(1+\varepsilon\left|a(n)-\sqrt{k}\right|\right)^l}. \end{aligned}$$

2- lemma isbotlandi. ♦

2-lemmadan quyidagi natija kelib chiqadi.

1-natija. *Quyidagi tengsizlik o'rinli:*

$$\sum_{k=0}^{\infty} |(\theta_k)_n|^2 = \sum_{j=0}^{\infty} \sum_{j \leq \sqrt{k} < j+1} |(\theta_k)_n|^2 \leq ca(n).$$

Endi quyidagicha belgilashni kiritamiz: $(\Delta_k)_n = (\theta_{k+1})_n - (\theta_k)_n$. Bu belgilashga ko'ra, $(\Delta_k)_n$ ni quyidagicha yozib olamiz:

$$(\Delta_k)_n = \int_{T^2} \theta_{k+1}(x) e^{-inx} dx - \int_{T^2} \theta_k(x) e^{-inx} dx = \int_{T^2} [\theta_{k+1}(x) - \theta_k(x)] e^{-inx} dx. \quad (26)$$

$$\theta_{k+1}(x) - \theta_k(x) = [\theta(x, k+1) - \theta(x, k)] \psi(x). \quad (27)$$

$$\begin{aligned} \theta(x, k+1) - \theta(x, k) &= (2\pi)^{-2} \sum_{A(j) < k+1} e^{ijx} - (2\pi)^{-2} \sum_{A(j) < k} e^{ijx} = \\ &= (2\pi)^{-2} \left\{ \sum_{A(j) < k} e^{ijx} + \sum_{A(j)=k} e^{ijx} - \sum_{A(j) < k} e^{ijx} \right\} = (2\pi)^{-2} \sum_{A(j)=k} e^{ijx} = \\ &= (2\pi)^{-2} \sum_{a(j)=\sqrt{k}} e^{ijx}. \end{aligned} \quad (28)$$

(28) ni (27) ga qo'yib:

$$\theta_{k+1}(x) - \theta_k(x) = (2\pi)^{-2} \sum_{a(j)=\sqrt{k}} e^{ijx} \psi(x). \quad (29)$$

(29) ni (26) ga qo'yib:

$$(\Delta_k)_n = (2\pi)^{-2} \int_{T^2} \sum_{a(j)=\sqrt{k}} e^{-i(n-j)x} \psi(x) dx = (2\pi)^{-2} \sum_{a(n-j)=\sqrt{k}} \int_{T^2} \psi(x) e^{-ijx} dx = \sum_{a(n-j)=\sqrt{k}} \psi_j.$$

Shunday qilib, quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$(\Delta_k)_n = \sum_{a(n-j)=\sqrt{k}} \psi_j. \quad (30)$$

Agar $a(n-j) = \sqrt{k}$ tenglama yechimga ega bo'lmasa, u holda $(\Delta_k)_n = 0$ deb olamiz.

1-natijadan ko'rinib turibdiki, $(\theta_k)_n$ ni bahosi $a(n)$ bo'yicha tekis bajarilmaydi. Bu holatni kompensatsiya qilish uchun $(\Delta_k)_n$ son uchun yaxshi baho olish zarur. Buning uchun $A^j = \{k : j \leq \sqrt{k} < j+1\}$ sonli to'plamni quyidagicha $Q^j = \{k : k = j^2 + p, p = 0, 1, 2, \dots, 2j\}$ yozib olishimiz mumkin. Haqiqatan ham:

$$j \leq \sqrt{k} < j+1 \Rightarrow j^2 \leq k < j^2 + 2j + 1 \Rightarrow k = j^2 + p, \quad p = 0, 1, 2, \dots, 2j.$$

Endi yuqorida kiritilgan Q^k to'plamga asoslanib $|(\Delta_k)_n|^2$ ni k bo'yicha quyidagicha yig'amiz:

$$\sum_{k=0}^{\infty} |(\Delta_k)_n|^2 = \sum_{k=0}^{\infty} \sum_{p=0}^{2k} |(\Delta_{k^2+p})_n|^2. \quad (31)$$

3-lemma. $n \in Z^2$ bo'yicha quyidagi

$$\sum_{k=0}^{\infty} \sum_{p=0}^{2k} |(\Delta_{k^2+p})_n|^2 \leq C$$

tengsizlik tekis bajariladi.

Agar $(\Delta_{k^2+p})_n$ sonlarini p parametr bo'yicha mos tarzda guruhlansa, u holda yana ham kuchliroq natija olish mumkin. Bizning keyingi vazifamiz shu guruhlashni o'tkazishdan iborat.

x_0 orqali ushbu $\{x \in R^2 : a(x-n) \leq k+1\}$ to'plamning koordinata boshiga yaqin nuqtasini belgilaylik. $T_{x_0} - \{x \in R^2 : a(x-n) \leq k+1\}$ to'plamning x_0 nuqtasiga o'tkazilgan urinma bo'lsin. l orqali x_0 nuqtadan o'tuvchi va T_{x_0} urinmaga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqni belgilaylik.

Quyidagi to'plamlarni tuzamiz:

$B_0 = \{x \in T_{x_0} : |x - x_0| < 1\}$ va $B_j = \{x \in T_{x_0} : \sqrt{j} \leq |x - x_0| < \sqrt{j+1}\}$ bu yerda $j = 1, 2, \dots, 2k-1$. C_j^k , $j = 1, 2, \dots, 2k-1$ asosi B_j hamda balandligi l to'g'ri chiziqqa parallel va uzunligi $|n|$ ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak bo'lsin. Ushbu $K = \{x \in R^2 : k \leq a(x-n) < k+1\}$ xalqani qaraylik va uni quyidagi to'plamlarga ajratamiz: $P_j^k = K \cap C_j^k$, $j = 0, 1, \dots, 2k-1$.

Q_q^k , $q = 0, 1, \dots, 2k-1$ to'plamini quyidagicha aniqlaymiz. Q_q^k shunday butun p , $0 \leq p \leq 2k-1$, sonlari to'plamiki, qaysiki $A(n-j) = k^2 + p$ tenglama P_q^k to'plamida yechimga ega. Agar biror p uchun P_n^k to'plam $A(n-j) = k^2 + p$ tenglamaning yechimlarini o'z ichiga olmasa, u holda Q_q^k to'plamiga bitta ixtiyoriy p sonini qo'shamiz, qaysiki oldingi Q_j^k , $j = 0, 1, \dots, q-1$ to'plamlariga kirmagan. Agar bunday p mavjud bo'lmasa, u holda Q_j^k , $j = q, q+1, \dots, 2k-1$ to'plamlarini bo'sh deb xisoblaymiz.

Bunday tanlashda Q_q^k to'plam ko'pi bilan $4\sqrt{q+1}$ elementlarga ega bo'lishini ko'rsatish mumkin. Bunga ishonch xosil qilish uchun P_q^k to'plamning Ox_1 o'qiga proeksiyasini uzunligi $2\sqrt{q+1}$ dan oshib ketmasligini ko'rsatish yetarli. O'z navbatida, agar $j \in P_q^k$ da har bir tayinlangan p uchun $A(n-j) = k^2 + p$ tenglamaning yechimi mavjud bo'lsa, qaysiki j ning birinchi koordinatasi j_1 , $[2\sqrt{q+1}]$ dan kichik bo'lgan turli qiymatlar qabul qiladi ($[a]$ - a butun qismi). Agarda p , 0 dan $2k-1$ gacha o'zgarsa, har bir j_1 soni uchun bu hol ko'pi bilan 2 marta takrorlanishi mumkin. O'z navbatida, har bir p parametr uchun Q_q^k to'plam ko'pi bilan $4[\sqrt{q+1}]$ ta elementlarga ega bo'lishi mumkin.

Q_q^k to'plamni bunday tanlashda biz quyidagi xulosaga ega bo'lamiz.

4-lemma. $q = 0, 1, \dots, 2k-1$ va $S_p = \{j \in Z^2 : A(n-j) = k^2 + p\}$ bo'lsin, bunda $p = 0, 1, \dots, 2k$.

Agar:

1) $a(n) \geq k+1$ bo'lsa, u holda

$$\min_{j \in S_p, p \in Q_q^k} |j| \geq \sqrt{(a(n) - k - 1)^2 + q} \quad (32)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi;

2) $k < a(n) < k+1$ bo'lsa, u holda

$$\min_{j \in S_p, p \in Q_q^k} |j| = \sqrt{q} \quad (33)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi;

3) $a(n) \leq k$ bo'lsa, u holda

$$\min_{j \in S_p, p \in Q_q^k} |j| \geq \frac{1}{2} \sqrt{(a(n) - k)^2 + q} \quad (34)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Isbot. Lemmani isbot qilish, ushbu $f(j) = |j|$ butun koordinatali funksiyaning P_q^k to'plamida eng kichik qiymatini topish bilan bir xil. Buning uchun P_q^k to'plamining koordinata boshiga eng yaqin nuqtasini topib, $f(j)$ funksiyaning shu nuqtadagi qiymatini topish yetarli.

1) $a(n) \geq k+1$ bo'lsin. Bu holda kordinata boshidan B_q to'plamgacha bo'lgan masofa ga teng bo'lishini osongina ko'rish mumkin.

2) $k < a(n) < k+1$ bo'lsin. Bu holda, koordinata boshidan P_q^k to'plamigacha bo'lgan eng qisqa masofa bu koordinata boshidan C_q^k to'g'ri to'rtburchakkacha bo'lgan masofadir, vaholanki, bu masofa $\sqrt{q}$ ga tengdir. Shunday qilib, bu hol uchun ham 4-lemma o'rinlidir.

3) $a(n) \leq k$ bo'lsin. Bu holda koordinata boshidan P_q^k to'plamigacha bo'lgan eng qisqa masofa, C_q^k bilan $a(n-j) = k$ sirtning kesishish nuqtasigacha bo'lgan masofadir. Bu holda ham isbot 1) qismi kabi isbotlanadi. Shunday qilib, 4-lemma to'liq isbotlandi. ♦

5-lemma. *Ihtiyoriy l natural son uchun shunday c_l o'zgarmas son mavjudki, quyidagi*

$$\sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})_n|^2 \leq \frac{c_l}{(1 + |a(n) - k|)^l} \quad (35)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Isbot. $a(n) \geq k+1$ bo'lsin. $(\Delta_j)_n$ ni (30) tenglik bilan aniqlangan ta'rifga ko'ra quyidagini xosil qilamiz:

$$\sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})|^2 \leq c \sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})| = c \sum_{p \in Q_q^k} \left| \sum_{a(n-j)=k^2+p} \psi_j \right| \leq c \sum_{p \in Q_q^k} \sum_{a(n-j)=k^2+p} |\psi_j|. \quad (36)$$

4-lemmaning 1) qismiga ko'ra, quyidagi baho

$$\sum_{p \in Q_q^k} \sum_{a(n-j)=k^2+p} |\psi_j| \leq \sum_{|j| \geq \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}} |\psi_j| \quad (37)$$

o'rinli. (37) da ψ_j uchun o'rinli bo'lgan (25) tengsizlikdan foydalanib, ushbu tengsizlikni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} & \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})_n|^2 \leq c \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{p \in Q_q^k} \sum_{a(n-j)=k^2+p} |\psi_j| \leq \\ & \leq c \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{|j| \geq \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}} |\psi_j| \leq c \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{|j| \geq \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}} \frac{c_l}{(1 + |j|)^l} \leq \\ & \leq c \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{|j| \geq \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}} \frac{c_l}{\left(1 + \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}\right)^l} \leq \\ & \leq c \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{|j| \geq \sqrt{(a(n)-k-1)^2+q}} \frac{c_l}{(1 + a(n) - (k+1))^l} \leq \frac{c_l}{(1 + a(n) - k)^l}. \end{aligned}$$

Boshqa hollarda ham 5-lemma xuddi shunga o'xshash isbotlanadi. 5-lemma isbotlandi. ♦

5-lemmadan quyidagi natija kelib chiqadi:

2-natija. *Quyidagi*

$$\sum_{k=0}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})_n|^2 \leq c \quad (38)$$

tengsizlik n bo'yicha tekis bajariladi.

Endi $(\theta_j)_n$ Furje koeffitsientlariga qaytamiz. 1-lemmadan quyidagi bahoni olamiz.

6-lemma. *Ushbu*

$$\sum_{k=0}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^{-2} \sum_{p \in Q_q^k} |(\theta_{k^2+p})_n|^2 \leq c \quad (39)$$

tengsizlik n bo'yicha tekis bajariladi.

Isbot. Yuqorida Q_q^k to'plamning elementlari soni $4 \lfloor \sqrt{q+1} \rfloor$ dan oshib ketmasligi aytilgan edi. Ushbu mulohaza va 1-lemmaga ko'ra quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{k=0}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^{-2} \sum_{p \in Q_q^k} |(\theta_{k^2+p})_n|^2 \leq \sum_{k=0}^{\infty} \frac{c_l}{(1 + |a(n) - k|)^l} \sum_{q=0}^{2k-1} \frac{4 \lfloor \sqrt{q+1} \rfloor}{(q+1)^2} \leq c.$$

6-lemma isbotlandi. ♦

2-teoremani isboti

Endi $\Delta_j(x) = \theta_{j+1}(x) - \theta_j(x)$ bo'lsin. Bu tenglikni har ikkala tomoniga $2\theta_j(x)$ ni qo'shamiz:

$$\theta_{j+1}(x) + \theta_j(x) = \Delta_j(x) + 2\theta_j(x)$$

yoki

$$\theta_{j+1} * f + \theta_j * f = \Delta_j * f + 2\theta_j * f. \quad (40)$$

Tushinarlikli $\{a_q\}$ ketma-ketlik uchun quyidagi tenglik o'rinli:

$$\sum_{j=0}^{q-1} (a_{j+1}^2 - a_j^2) = a_q^2 - a_0^2 = a_q^2. \quad (41)$$

Bu yerda $a_0 = 0$ deb qabul qilamiz (bizning holda bu bajariladi $a_0 = \theta_0 * f = (\theta(0, x) \cdot \psi(x)) * f = [\theta(0, x) = 0] = 0$).

(40) ni har ikkala tomonini $\Delta_j * f = \theta_{j+1} * f - \theta_j * f$ ga ko'paytiramiz:

$$[\theta_{j+1} * f]^2 - [\theta_j * f]^2 = [\Delta_j * f]^2 + 2[\Delta_j * f][\theta_j * f].$$

Oxirgi tenglikni j bo'yicha 0 dan $q-1$ gacha yig'ib va chap tomonida (41) tenglikdan foydalanib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$[\theta_q * f]^2 = \sum_{j=0}^{q-1} [\Delta_j * f]^2 + 2 \sum_{j=0}^{q-1} [\Delta_j * f][\theta_j * f]. \quad (42)$$

(42) tenglikka ko'ra, ushbu tengsizlikka ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} |\theta_q * f|^2 &\leq \sum_{j=0}^{q-1} |\Delta_j * f|^2 + 2 \sum_{j=0}^{q-1} |\Delta_j * f| |\theta_j * f| \leq \sum_{j=0}^{\infty} |\Delta_j * f|^2 + 2 \sum_{j=0}^{\infty} |\Delta_j * f| |\theta_j * f| = \\ &= \sum_{j=0}^{\infty} |\Delta_j * f|^2 + 2 \sum_{j=0}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} \sum_{p \in Q_q^k} |\Delta_{k^2+p} * f| (q+1) \times |\theta_{k^2+p} * f| (q+1)^{-1}. \end{aligned} \quad (43)$$

(43) tengsizlikni har ikkala tomonidan supremum olib, quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz:

$$\sup_{q>0} |\theta_q * f|^2 \leq \sum_{j=0}^{\infty} |\Delta_j * f|^2 + 2 \sum_{j=0}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} \sum_{p \in Q_q^k} |\Delta_{k^2+p} * f| (q+1) \times |\theta_{k^2+p} * f| (q+1)^{-1}. \quad (44)$$

(44) tenglikni T^2 bo'yicha integrallab va Parseval tenglidani foydalanib, 1- qo'shiluvchining yig'indi ostidagi ifoda uchun quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz:

$$\int_{T^2} |(\Delta_j * f)(x)|^2 dx = \sum_{n \in \mathbb{Z}^2} (\Delta_j * f)_n^2 \leq [(\Delta_j * f)_n \leq (\Delta_j)_n \cdot f_n] \leq \sum_{n \in \mathbb{Z}^2} |(\Delta_j)_n|^2 \cdot |f_n|^2. \quad (45)$$

Ikkinchi qo'shiluvchida esa dastlab, ushbu $2ab \leq a^2 + b^2$ tengsizlikni qo'llab:

$$2 |\Delta_{k^2+p} * f| (q+1) \times |\theta_{k^2+p} * f| (q+1)^{-1} \leq (q+1)^2 |\Delta_{k^2+p} * f|^2 + (q+1)^{-2} |\theta_{k^2+p} * f|^2,$$

so'ngra bu tengsizlikni ham har ikkala tomonini T^2 bo'yicha integrallab va yuqoridagiga o'xshash baholab, quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} & 2 \int_{T^2} |(\Delta_{k^2+p} * f)(x)| (q+1) \times |(\theta_{k^2+p} * f)(x)| (q+1)^{-1} dx \leq \\ & \leq \sum_{n \in Z^2} f_n^2 (q+1)^2 |(\Delta_{k^2+p})_n|^2 + \sum_{n \in Z^2} f_n^2 (q+1)^{-2} |(\theta_{k^2+p})_n|^2. \end{aligned} \quad (46)$$

(45) va (46) larga ko'ra (44) ni quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned} \int_{T^2} \sup_{q>0} |(\theta_q * f)(x)|^2 dx & \leq \sum_{n \in Z^2} f_n^2 \sum_{j=1}^{\infty} |(\Delta_j)_n|^2 + \sum_{n \in Z^2} f_n^2 \sum_{k=1}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^2 \sum_{p \in Q_q^k} |(\Delta_{k^2+p})_n| + \\ & + \sum_{n \in Z^2} f_n^2 \sum_{k=1}^{\infty} \sum_{q=0}^{2k-1} (q+1)^{-2} \sum_{p \in Q_q^k} |(\theta_{k^2+p})_n|. \end{aligned} \quad (47)$$

(47) ni o'ng tomonidagi birinchi qo'shiluvchi uchun 3-lemmani ikkinchi qo'shiluvchi uchun 5-lemmani va uchinchi qo'shiluvchi uchun 6-lemmani qo'llab va yana Parseval tengligidan foydalanib, quyidagini olamiz:

$$\int_{T^2} \sup_{q>0} |(\theta_q * f)(x)|^2 dx \leq c \|f\|_{L_2(T^2)}.$$

2- teorema isbotlandi. ♦

1-teoremani isboti

$x \in \Omega$ da $f(x) = 0$ bo'lsin, bu yerda $\Omega \subset T^2$ biror ochiq to'plam. $f(x) \in C_0^\infty(T^2)$ bo'lsin, u holda ushbu $\lim_{\lambda \rightarrow \infty} S_\lambda f(x) = f(x)$ tenglik $x \in T^2$ bo'yicha tekis bajariladi. Endi $f(x) \in L_2(T^2)$ bo'lsin. Ihtiyoriy $\varepsilon > 0$ sonini tayinlaymiz. $C_0^\infty(T^2)$ fazosi $L_2(T^2)$ da zich, u holda shunday $g \in C_0^\infty(T^2)$ mavjudki, ushbu $\|f - g\|_{L_2(T^2)} < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'ladi. $S_\lambda g$ ni $g(x)$ ga T^2 da tekis yaqinlashishiga ko'ra shunday $M = M(\varepsilon)$ soni mavjudki, barcha $\lambda > M$ lar uchun quyidagi

$$|S_\lambda g(x) - g(x)| < \varepsilon, \quad x \in T^2$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

U holda, $\lambda > M$ lar uchun quyidagi tengsizlikni olamiz:

$$|S_\lambda f - f| \leq |S_\lambda(f - g)| + |S_\lambda g - g| + |f - g| \leq S_*(f - g) + \varepsilon + |f - g|.$$

(4) tengsizlikdan foydalanib, quyidagi

$$\| \sup_{\lambda > M} |S_\lambda f - f| \|_{L_2(\Omega)} = \| \sup_{\lambda > M} |S_\lambda f| \|_{L_2(\Omega)} \leq c \|f - g\|_{L_2(T^2)} + \varepsilon_1 + \|f - g\|_{L_2(T^2)} < \varepsilon$$

tengsizlikni xosil qilamiz.

O'z navbatida, oxirgi tengsizlikdan T^2 dagi ihtiyoriy Ω uchun ushbu

$$\lim_{\lambda \rightarrow \infty} \| \sup_{\lambda > M} |S_\lambda f| \|_{L_2(\Omega)} = 0$$

munosabat o'rinli ekanligi kelib chiqadi. Oxirgi munosabat $\lim_{\lambda \rightarrow \infty} S_\lambda f(x) = 0$ tenglikni Ω da deyarli bajarilishini anglatadi. Shunday qilib, 1-teorema isbotlandi. ♦

ADABIYOTLAR

1. V. A. Il'in. Generalized interpretation of the principle of localization for Fourier series in fundamental function systems, Siberian Math. J., 9:5 (1968), 812-820.
2. R. R. Ashurov. Generalized Localization and Summability Almost Everywhere of Multiple Fourier Series and Integrals, J Math Sci, 278:3 (2024), 408-425.

РЕЗЮМЕ

В данной работе изучается задача почти всюду сходимости последовательности эллиптических частичных сумм рядов Фурье в заданной области, исходя из условия, что носитель разлагаемой функции лежит вне этой области. Эту проблему обычно называют задачей обобщенной локализации.

Ключевые слова: Ряды Фурье, эллиптических частичных суммы, обобщенная локализация, максимальный оператор.

RESUME

In this paper, we study the problem of almost everywhere convergence of a sequence of elliptic partial sums of Fourier series in a given domain, based on the condition that the support of the function being expanded lies outside this domain. This problem is usually called the problem of generalized localization.

Key words: Fourier series, elliptic partial sums, generalized localization, maximal operator.

UDC 531:621-752:681

**NOMUKAMMAL ELASTIK STERJENNING CHIZIQLIMAS TEBRANISHLARI
USTUVORLIGI****DUSMATOV O. M.**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI, SAMARQAND
dusmatov62@bk.ru**XODJABEKOV M. U.**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI, SAMARQAND
uzedu@inbox.ru**KASIMOVA F. U.**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI, SAMARQAND,
fkasimova988@gmail.com

REZYUME

Ushbu ishda kinematik qo'zg'alishlarda gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenning chiziqlimas tebranishlari ustuvorligini tekshirish masalasi qaralgan. Lyapunovning birinchi yaqinlashish usulidan foydalanilib, ustuvorlik shartlari analitik ko'rinishda aniqlangan, hamda ustuvorlik sohalari va chegaralari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nomukammal, elastik, sterjen, gisterezis, tebranish, amplituda-chastota xarakteristikasi, ustuvorlik sharti.

Kirish. Zamonaviy texnika va texnologiyalardagi: mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar va ularning elementlari materiallaridagi chiziqlimas dissipativ xarakteristikalarini hisobga olgan holda tebranishlarini o'rganish va ustuvorligini tekshirish natijasida dinamik xarakteristikalarini aniqlash uzoq muddat samarali ishlashini ta'minlash nuqtai nazaridan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Taqsimlangan parametrli sistemalarning chiziqlimas xarakteristikalarini hisobga olgan holda ularning tebranishlarini matematik modellashtirish va ustuvorligini tekshirishga oid ko'plab ilmiy tadqiqod ishlari mavjud.

[1]-ishda bir uchidan boshlab qalinligi bir xilda kamayib boradigan sterjenning ko'ndalang tebranishlari ko'rib chiqilgan. Tebranishlar tezligi tahlil qilingan. Olingan differensial tenglamalar aniq yechimga ega ekanligi ko'rsatilgan. Bu yechimlar asosida qalinligi o'zgarishi parabolik bo'lmaganda sterjen tenglamasini yechish uchun yangi usul taklif etilgan, xulosalar berilgan.

[2]-ishda o'zgaruvchan ko'ndalang kesimli sterjenlarning tebranishlarini tahlil qilishning sonli usullari keltirilgan. Ostrogradskiy - Gamilton printsipi sterjen bo'ylama, buralma va ko'ndalang tebranishlari tenglamalarini olish uchun qo'llanilgan. Turli xil chegaraviy shartlarda differensial hisoblashlar usullari bilan berilgan chegaraviy masalalar yechilgan, tahlil qilingan.

[3]-ishda diskret va uzluksiz sistemalarning chiziqli bo'lmagan erkin va majburiy tebranishlari o'rganilgan. Sistemalar Lagranj tenglamalari yordamida matematik modellashtirilgan, yechish metodikalari ishlab chiqilgan.

[4]-ishda chiziqli bo'lmagan sistemalarning harakat ustuvorligi parametrlarining o'zgarishiga bog'liq holda nazariy o'rganilgan. Sistema harakatining ustuvor va ustuvor bo'lmagan sohalari ajratishga doir teoremlar keltirilgan. Harakati davriy koeffisientli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar bilan ifodalangan sistemalarning harakat ustuvorligi tahlil qilingan.

[5]-ishda chiziqli bo'lmagan sistemalarni tebranma harakatlarini tekshirishda qo'llaniladigan garmonik balans usuli haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Sistema harakat differensial tenglamasidagi chiziqli bo'lmagan koeffisientlarning xarakteri tahlil qilingan. Bundan tashqari gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikaga ega bo'lgan sistemalar uchun ularning xarakteristik tenglamasini aniqlash usuli ko'rsatilgan, asoslab berilgan.

[6-13]-ishlarda turli xil qo'zg'alishlar ta'siridagi chiziqli bo'lmagan sistemalar harakat ustuvorligini tekshirishning nazariy asoslari va qo'llanilishi keltirilgan, chiziqlimas xarakteristikalarini chiziqlashtirish masalalari qarang.

Nomukammal elastik - gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenni kinematik qo'zg'alishlar ta'siridagi tebranishlarini matematik modellashirish va statsionar harakatlari ustuvorligini turli chegaraviy shartlarda tekshirish yechilishni talab etadigan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Masalaning qo'yilishi va yechish metodikasi. Ushbu ishda ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning kinematik qo'zg'alishlardagi ko'ndalang tebranishlarini ustuvorligini tekshirish masalasini qaraymiz.

Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali elastik sterjenning kinematik qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang tebranishlarining keltirilgan harakat differensial tenglamasi asos tezlanishini $W_0 = -\varepsilon p_0 \cos \omega t$ ifodasini hisobga olganda quyidagicha bo'ladi (εp_0 va ω - mos ravishda asos tezlanishining amplitudaviy qiymati va chastotasi) [14]:

$$\ddot{q}_i + \{1 + N_* + jN_{**}\} p_i^2 q_i = d_i \varepsilon p_0 \cos \omega t, \quad (1)$$

bunda

$$\begin{aligned} N_* = & -\eta_1 C_0 - \frac{3E\eta_1}{\rho F d_{2i} p_i^2} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + \\ & + \frac{E}{\rho F d_{2i} p_i^2} \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[1 - \eta_1 C_0 - 3\eta_1 \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + \\ & + \frac{2E}{\rho F d_{2i} p_i^2} \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} [1 - \eta_1 C_0 - 3\eta_1 \times \right. \\ & \times \left. \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k] \right] dx; \\ N_{**} = & C_0 \eta_2 + \frac{3E\eta_2}{\rho F d_{2i} p_i^2} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + \\ & + \frac{E}{\rho F d_{2i} p_i^2} \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[C_0 \eta_2 + 3\eta_2 \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + \\ & + \frac{2E}{\rho F d_{2i} p_i^2} \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[C_0 \eta_2 + 3\eta_2 \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] \right] dx; \end{aligned}$$

$q_i(t)$ - vaqt funksiyasi; $j^2 = -1$; E - elastiklik moduli; $\eta_1, \eta_2 = \eta_{22} \text{sign}(\omega)$; lar sterjen materialining elastik dissipativlik xossalriga bog'liq bo'lgan doimiy koeffitsientlar bo'lib, gisterezis sirtmog'idan aniqlanadi; $C_0, C_1, \dots, C_n$ - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo'lib, sterjen materialining dempferlovchi xossalriga bog'liq [11]; $l = \text{const}$, $b = b(x)$ va $h = \text{const}$ - mos ravishda sterjenning uzunligi, eni va qalinligi; ρ, F - mos ravishda sterjen materialining zichligi va ko'ndalang kesim yuzi; p_i, u_i - sterjenning xususiy chastotalar va tebranish formalari; $I = \frac{bh^3}{12}$; $d_i = \frac{d_{1i}}{d_{2i}}$; $d_{1i} = \int_0^l u_i dx$; $d_{2i} = \int_0^l u_i^2 dx$; $q_{ia} = |q_i|$.

(1) differensial tenglamaning yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$q_i = D e^{-j\omega t} + P e^{-j\omega t}, \quad (2)$$

bu yerda $D = D(t)$; $P = P(t)$.

(2) ko'rinishda izlanayotgan yechimlarning amplitudaviy qiymatlari $q_{ia} = 2\sqrt{DP}$ shartni qanoatlantiradi.

(1) harakat differensial tenglamani (2) yechimni hisobga olib, standart ko'rinishida ifodalaymiz.

$$\begin{aligned}\dot{D} &= \frac{1}{2j\omega} \left(\frac{1}{2} \varepsilon p_0 d_i (e^{j\omega t} + e^{-j\omega t}) - (N_* + jN_{**}) p_i^2 q_i - (p_i^2 - \omega^2) q_i \right) e^{-j\omega t}; \\ \dot{P} &= -\frac{1}{2j\omega} \left(\frac{1}{2} \varepsilon p_0 d_i (e^{j\omega t} + e^{-j\omega t}) + (-N_* + jN_{**}) p_i^2 q_i - (p_i^2 - \omega^2) q_i \right) e^{j\omega t}.\end{aligned}\quad (3)$$

(3) differensial tenglamalarni o'rtalashtiramiz. U holda

$$\begin{aligned}\dot{D} &= \frac{1}{2j\omega} \left[\frac{1}{2} \varepsilon p_0 d_i - (N_* + jN_{**}) p_i^2 D - (p_i^2 - \omega^2) D \right]; \\ \dot{P} &= -\frac{1}{2j\omega} \left[\frac{1}{2} \varepsilon p_0 d_i + (-N_* + jN_{**}) p_i^2 P - (p_i^2 - \omega^2) P \right].\end{aligned}\quad (4)$$

$\dot{D} = \dot{P} = 0$ shart asosida (4) differensial tenglamalardan D_0 va P_0 statsionar yechimlarni aniqlanadi va ularga mos keladigan amplitudalarning qiymatlari quyidagicha ifodalanadi:

$$q_{ia} = \frac{\varepsilon p_0 d_i}{\sqrt{[(1 + N_*) p_i^2 - \omega^2]^2 + [N_{**} p_i^2]^2}}. \quad (5)$$

Aniqlangan yechimlar ustuvorligini tekshirish maqsadida (4) differensial tenglamalarni variatsialaymiz. Natijada quyidagi xarakteristik tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\lambda^2 + l_1 \lambda + l_0 = 0, \quad (6)$$

bunda

$$l_1 = 2(p_i^2 - \omega^2) + \left(2N_* + q_{ia} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} \right) p_i^2; \quad (6')$$

$$l_0 = N_* \left(N_* + q_{ia} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} \right) p_i^4 + \left(2N_* + q_{ia} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} \right) p_i^2 (p_i^2 - \omega^2) + (p_i^2 - \omega^2)^2. \quad (6'')$$

Sterjenning chiziqlimas statsionar tebranishlari ustuvor bo'lishi uchun (6) xarakteristik tenglama ildizlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lishi yetarli bo'ladi. Gurvis kriteriysiga asosan (6) xarakteristik tenglama ildizlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lishini ko'rsatamiz.

$$l_1 > 0; \quad l_0 > 0. \quad (7)$$

(7) tengsizliklarning birinchi tengsizligini tahlil qilamiz. Buning uchun uni (6') ifodasini qo'yidagicha yozamiz:

$$1 + N_* + \frac{q_{ia}}{2} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} > \frac{\omega^2}{p_i^2}. \quad (8)$$

(8) tengsizlikning o'ng tomonidagi ifoda musbatligidan, chap tomonidagi ifoda ham musbatligi kelib chiqadi, ya'ni

$$1 + N_* + \frac{q_{ia}}{2} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} > 0. \quad (9)$$

(7) tengsizliklarning ikkinchi tengsizligi tahlil qilsak, u quyidagi shart bajarilganda o'rinli bo'ladi.

$$\left(2N_* + q_{ia} \frac{\partial N_*}{\partial q_{ia}} \right)^2 - 4 \left(N_* \frac{\partial q_{ia} N_*}{\partial q_{ia}} + N_{**} \frac{\partial q_{ia} N_{**}}{\partial q_{ia}} \right) > 0. \quad (10)$$

(10) shart gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenning kinematik qo'zg'alishlar ta'siridagi chiziqlimas stasionar tebranma harakatlarining ustuvorlik sharti hisoblanadi. Bu ifoda sistema parametrlarining turli qiymatlarida ustuvorlik sohalari hamda chegaralarini aniqlash imkonini beradi.

Sterjenning chap uchi qistirib mahkamlangan va bir uchi erkin bo'lgan holni qaraymiz. Bu hol uchun sterjenning ko'chishini quyidagicha olingan:

$$w_i(x, t) = \sum_{i=1}^{\infty} u_i(x) q_i(t). \quad (11)$$

Xususiy tebranishlar formalari quyidagicha olamiz:

$$u_i(x) = \Delta_1 K_1(k_i x) + \Delta_2 K_2(k_i x) + \Delta_3 K_3(k_i x) + \Delta_4 K_4(k_i x), \quad (12)$$

bunda $\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3, \Delta_4$ - chegaraviy shartlardan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar; $K_1(k_i x), K_2(k_i x), K_3(k_i x), K_4(k_i x)$ - Krilov funksiyalari, ya'ni

$$\begin{aligned} K_1(k_i x) &= \frac{1}{2} (\cosh(k_i x) + \cos(k_i x)); K_2(k_i x) = \frac{1}{2} (\sinh(k_i x) + \sin(k_i x)); \\ K_3(k_i x) &= \frac{1}{2} (\cosh(k_i x) - \cos(k_i x)); K_4(k_i x) = \frac{1}{2} (\sinh(k_i x) - \sin(k_i x)); \end{aligned} \quad (13)$$

$$k_i = \left(\frac{\rho F}{EI} p_i^2 \right)^{\frac{1}{4}}.$$

Qaralayotgan masala uchun chegaraviy shartlarni yozamiz.
 $x = 0$ bo'lgan sterjen uchi uchun:

$$w_i = w_0; \quad \frac{\partial w_i}{\partial x} = 0, \quad (14)$$

bunda w_0 - asosning ko'chishi.
 $x = l$ bo'lgan sterjen uchi uchun:

$$\frac{\partial^2 w_i}{\partial x^2} = 0; \quad \frac{\partial}{\partial x} \left(EI(x) \frac{\partial^2 w_i}{\partial x^2} \right) \Big|_{x=x_0} = 0. \quad (15)$$

Bu chegaraviy shartlarga asosan chastota tenglamasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$1 + \cosh(k_i l) \cos(k_i l) = 0. \quad (16)$$

1-rasmda (16) chastota tenglamasining grafigi (a) va uning birinchi (b) va ikkinchi (c) nollari keltirilgan. Bu grafiklardan $k_1 = 7.500416275$ va $k_2 = 18.77635$ ekanligini aniqlash mumkin.

Natijada tebranishlarning birinchi va ikkinchi xususiy formalari quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} u_1(x) &= 999.668759(\cosh(7.500416275x) - \cos(7.500416275x)) - \\ &\quad - 773.8523515(\sinh(7.500416275x) - \sin(7.500416275x)); \end{aligned} \quad (17)$$

$$\begin{aligned} u_2(x) &= -2.81762557 \cdot 10^5 (\cosh(18.7764x) - \cos(18.7764x)) + \\ &\quad + 2.869669872 \cdot 10^5 (\sinh(18.7764x) - \sin(18.7764x)). \end{aligned} \quad (18)$$

$k_1 = 7.500416275$ va $k_2 = 18.77635$ qiymatlar asosida sterjenning xususiy chastotalarini aniqlaymiz.

Faraz qilaylik sterjen 40X markali po'lat materialli bo'lsin. U holda

$$E = 2.08 \cdot 10^{11} \frac{\text{N}}{\text{m}^2}; \rho = 7810 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}.$$




Рис. 1: (16) tenglamani aniqlovchi funksiyaning grafigi.

Birinchi va ikkinchi tebranishlar formalariga mos keladigan xususiy chastotalar quyidagicha bo'ladi:

$$p_1 = 167.6163034 \frac{1}{s},$$

$$p_2 = 1050.431816 \frac{1}{s}.$$

